

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11668456>

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti "Bank ishi" kafedrasida assistent o'qituvchisi
Yo'ldosheva Iroda

Annotatsiya: *Bugungi kunda mamlakatimiz bank tizimida ham raqamli transformatsiyalash jarayonlari jadal kechmoqda. Ko'rsatilayotgan raqamli bank xizmatlari ko'rsatilishidan aholining foydalanish darajasi, bank tizimida amalga oshirilayotgan isloxtarlarga aholining fikrini bilish maqsadida so'rovnomalar o'tkazilib tahlil etilgan.*

Kalit so'zlar: *raqamli transformatsiya, neobank, raqamli bank, onlayn banking, raqamli bank platformalari, bank xizmatlari.*

Abstract: *Digital transformation processes are accelerating in the banking system of our country today. Questionnaires were conducted and analyzed in order to find out the opinion of the population about the level of use of the provided digital banking services and the reforms implemented in the banking system.*

Key words: *digital transformation, neobank, digital banking, online banking, digital banking platforms, banking services. Аннотация: Сегодня в банковской системе нашей страны ускоряются процессы цифровой трансформации. Анкетирование было проведено и проанализировано с целью выяснить мнение населения об уровне использования предоставляемых цифровых банковских услуг и реформах, реализуемых в банковской системе.*

Ключевые слова: *цифровая трансформация, необанк, цифровой банкинг, онлайн-банкинг, цифровые банковские платформы, банковские услуги.*

Bugungi kunda raqamli banklar buntun dunyo bo'ylab juda ham jadallik bilan rivojlanib bormoqda va islomiy banklar tizimiga raqobatbardosh bank tizimi sifatida qaralmoqda.

Raqamli texnologiya iqtisodiy farovonlikning ko'p o'lchovlarida, masalan, iqtisodiyot, sog'liqni saqlash, ta'lim va hokazolarda ishtirok etishni qamrab olishi bilan ahamiyatlidir. Ya'ni to'rtinchi sanoat inqilobi avtomatlashtirish, kompyuterlashtirish va robotlashtirish bilan birgalikda axborot texnologiyalarini rivojlantirishga asoslangan bo'lib, texnik hamda ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarga olib keladi. Bu esa mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy natijalarni yaxshilashga yordam beradi, shuningdek, innovatsiyalar va unumdorlikni oshirish uchun harakatlantiruvchi kuch bo'lishi mumkin. Jahon amaliyotining ko'rsatishicha, sanoat tuzilmasi tarkibini raqamli texnologiya innovatsiyasi asosida takomillashtirish aholini sifatli sanoat mahsulotlari bilan ta'minlash imkonini oshiradi. Hozirgi kunda jahon bank-moliya tizimining jadal rivojlanib borishi natijasida banklar faoliyatida yangi zamonaviy texnologiyalardan foydalanishga yanada ko'proq ehtiyoj sezilmoqda.

1-jadval

	Onlayn banklar	An'anaviy banklar
	Ba'zi onlayn banklarda to'lovlar kamroq va ulardan kamroq	Naqd pul o'tkazish ancha oson.
	Xizmatlar tannarxining arzon bo'lishi (yirik bino va ofislarga zaruriyatning yo'qligi)	Bank xarajatlarining ko'pligi natijasida xizmatlar tannarxining yuqoriligi
3	Omonatlaringiz uchun ancha yaxshi foiz stavkasini olishingiz mumkin	Hisob egalari so'ralganda do'konning qulay filiallarida shaxsiy xizmatdan foydalanishlari mumkin

An'anaviy bank tizimida operatsion xarajatlarning ichida eng yuqori ulush ya'ni 57% aynan oylik ish haqilarga to'g'ri keladi. Raqamli banklarda esa aynan filiallarning ko'p bo'lmasligi sababli bu ko'rsatkich yetarli darajada pasaytirish imkoniyati mavjud.

Bank, bu moliya muassasi shunchalar rivojlandiki hozirda bu so'zni bilmaydigan, tushunmaydigan shaxsning o'zi yo'q. Jamiyat hayotida bu iqtisodiy termin, o'z obro' e'tiboriga ega. Kundalik turmish hayotimizda bajaradigan ishlarimizda ham bu moliya muassasiga yuzlanamiz. Plastik kartada bajariladigan kichik savdodan to valyuta ayri boshlash kabi ishlarda bu moliya muassasi bizga ko'maklashadi. Ammo biz axborot texnologiya har nafasda o'zgaradigan zamonda yashab turar ekanmiz bank hatto bu iqtisodiy termin ham jamiyat hayotidan chiqib ketishi mumkin. Yoki zamon talabiga moslashadi yoki inson nazaridan chekkada qoladi. Bu o'z navbatida bank tizimidan yangicha tizim va yangicha yodashuni talab qiladi. Bu yangi yondashuvni biz raqamli bank misolida ko'rishimiz mumkin. Mutloq yangi tizim, qulay imkoniyatlar, yangicha yondashuv bir soz bilan aytganda ana'naviy banklarning yangi avlodi. Raqamli banklar va ana'naviy banklarning asosiy maqsadlari bir xil bo'lsada faoliyat turi bir biridan sezilarli darajada farq qiladi.

“Raqamli bank — innovatsion bank texnologiyalaridan foydalangan holda (kassa xizmatini ko'rsatmasdan) bank xizmatlarini masofaviy ko'rsatuvchi bank yoki uning tarkibiy bo'linmasi. Raqamli banklar tomonidan bank xizmatlarini masofaviy ko'rsatish bankning ichki tartib qoidalariga asosan qonun hujjatlari talablarini inobatga olgan holda amalga oshiriladi”

Raqamli bank – online platformadan foydalanadigan holda molyaviy xizmatlarni amalga oshirish, bu bankning mijoz bilan ishlash sifatini yaxshilaydi hamda va xarajatlarini tejaydi, shaxsiy m'lumotlarning xavfsizligi hamda xizmatlar sifati va tezligini oshiradi. Raqamli bankalar deyarli rivojlangan, rivojlanayotgan barcha davlatlarda mavjud bo'lib o'z faoliyatini yuritib kelmoqda³⁷.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2018 yildagi qarori bilan Markaziy bankka normativ-huquqiy hujjatlarni zamonaviy bank xizmatlarini ko'rsatish uchun to'siqlarni

³⁷ RAQAMLI BANK XIZMATLARI VA UNING AFZALLIKLAR Mirzobek Komiljonovich Avezov

bartaraf etish va sharoit yaratish, shu jumladan chakana xizmatlarga ixtisoslashgan “raqamli” banklar va bank bo‘linmalarini tashkil etish topshirig‘i berilgan edi³⁸. Markaziy bank 2020-yil 9-mart, raqamli bank — “Anor bank” aksiyadorlik jamiyatini tashkil etishga doir dastlabki ruxsatnoma olgan. Raqamli banklar tomonidan bank xizmatlarini masofaviy ko‘rsatish bankning ichki tartib-qoidalariga asoslangan holda aholiga moliyaviy opeartsiyalarni ko‘rsatishga asoslangan bank hisoblanadi.

Sohani raqamlashtirishning yana bir ahamiyatli tomoni shundaki, xizmat ko‘rsatuvchi tomonidan ber-ilayotgan takliflar va foydalanuvchi tomonidan kiritilgan ma‘lumotlar barchasi axborot texnologiyalar xotirasida saqlanib qoladi hamda kerakli paytda ma‘lumotlarni tez taqdim etadi. Bunday holatda qaysidir mijozlar uchun alohida imkoniyatlar berish yoki boshqa bir mijozlarni taqdim etgan ma‘lumotlarini ko‘rib chiqmasdan qoldirish yohud uning imkoniyatlarini cheklash, yashirin bitimlar tuzish imkoni yo‘q. Bu o‘z navbatida banklar faoliyatining barcha uchun tenglik va ochiqlik kafolatini ta‘minlaydi [9].Tijorat banklarining asosiy maqsadi raqobat sharoitida mijoz jalb qilib, yuqori foyda olishga intiladi. Bankla-raro raqobatda xizmatlar bozorida yuqori mavqega ega bo‘lish, ma‘lum bank xizmatlari bozorini egallashda eng istiqbolli rivojlanish yo‘nalishlaridan biri zamonaviy bank xizmatlari ko‘rsatish amaliyotini rivojlantirishdir.

Biz ularni raqamli bank, onlayn bank, internet bank yoki neobanklar deb atasakda, ularni an‘anaviy bank muassasalaridan farqi jismoniy filiallari majud emas. Bu shuni anglatadiki ular ko‘pincha mijozlarga yuqori daromad va mablag‘larini boshqarish bo‘yicha innovatsion resurslarni taklif qilishlari mumkin. Garchi neobanklar an‘anaviy bank institutlarini o‘rnini to‘liq bosa oladimi deyishga hali erta bo‘lsada, AQSH, Yevropa ittifoqi Xitoy va boshqa rivojlangan mamlakatlardagi internet banklar doimiy ravishda o‘sib borishi haqiqatdir.Mintaqalar bo'yicha butun dunyo bo'ylab faol onlayn-banking foydalanuvchilari soni ;

Shimoliy Amerika 240,1 mln;

Yevropa 361,7 mln;1

Uzoq sharq va Xitoy 805.1 mln;

Lotin Amerika 109.0 mln;

Dunyoning boshqa mintaqalari 805.1 mln.Bugungi kunda bank xizmati foydalanuvchilari bank filiallariga borib, navbatlar kutib vaqtini o‘tkazishdan ko‘ra, vaqtdan unumli foydalanishni, ya‘ni vaqtini o‘z bizneslariga, sport, madaniyat va shu singari foydali ishlari uchun sarflashni afzal biladi. Endilikda birgina bank mobil ilovasi orqali hisob raqamni hoxlagan vaqtda tasarruf etish, ortiqcha mablag‘larni muddatli depozitlarga qo‘yish, kredit olish, xalqaro o‘tkazmalar, valyuta ayribosh-lash kabi bir qator bank xizmatlaridan onlayn foydalanish mumkin.Innovatsion bank xizmatlari-raqamli bank xizmatlarining o‘ziga xos xususiyati sifatida tizimning shaffofligi, inson omilining cheklanganligi, korrupsiya hamda tanish-bilishchilik va shu singari bir qator illatlarga tubdan barxam beradi.Umuman olganda iqtisodiyot tarmoqlarini raqamlashtirish

korruptsiya va yashirin iqtisodiyotning asosiy kushandasidir. Chunki, banklar tomonidan ko'rsatiladigan xizmat turlari va olinadigan komission xizmat haqlari hamda boshqa ma'lumotlar barcha uchun bir xil bo'lib, qulay va tushunarli tarzda taklif etiladi. Foydalanuvchi mijoz uchun o'z vaqtini va mablag'larini (bir necha banklarga borib uchrashish, yo'l xarajati va boshqalar) tejagan holda banklarni va xizmat turlarini tanlash imkoniyati mavjud.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Tojiyev R.R., Rahmatov T.S. Zamonaviy sharoitda bank xizmatlar bozorining nazariy jihatlari//“Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. –No 6, noyabr-dekabr, –2020-yil.
2. Mamadiyarov. Z.T Tijorat banklarida masofaviy bank xizmatlarini rivojlantirish. Avtoreferat. –2019-y. –13 b.
3. Ковалев М., Головенчик Г. Цифровая трансформация банков // Банковский вестник. No11(664),2018.50-60 с.
4. Блажевич А.А., Рябченко А.А. Необанк как новое направление финансовых инноваций в Российской Федерации // Вестник Института экономических исследований. –No4 (12),– 2018. –160-168 с.
5. www. en.wikipedia.org6. Mamadiyarov Z.T. Raqamli iqtisodiyotda masofaviy bank xizmatlarining evolyutsion rivojlanishi: mulohazalar va tahlillar // “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. –No 3, may-iyun, 2020.
6. <https://www.gobankingrates.com/banking/banks/history-online-banking> ma'lumotlari asosida.
7. <https://moneytransfers.com/bank-transfers/online-banking-statistics> ma'lumotlari asosida.
8. Меликов О.М. The Role Of Distance Banking Services In The Context Of Integration Processes // “The American Journal of Management and Economics Innovations”. ilmiy elektron jurnali. No 01-07, январ, 2021й.28-35 б.
9. <http://www.deeplace.md/rus/section/170>.
10. <https://docs.google.com/forms>